



Zarnigor NISHONOVA,

O'qituvchi, Toshkent viloyati, Olmaliq shahri 18-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi, Olmaliq, O'zbekiston

E-mail: Zarnigornishanova3@gmail.com, ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0004-7751-5237>

DSc A.G'aniyev taqrizi asosida

TURKISTONDA MUHOJIRLIK HARAKATINING YUZAGA KELISH SABABLARI (SOVET MUSTAMLAKACHILIGI DAVRI MISOLIDA)

Anotatsiya

Maqolada sovet mustamlakachiligi davrida Turkistonda muhojirlikning yuzaga kelish omillari tahlil qilingan. Siyosiy tazyiqlar, milliy va diniy qadriyatlarining cheklanishi, "madaniy inqilob", jamoalashtirish va quloqlashtirish siyosati, shuningdek, "Hujum" kompaniyasi hamda ikkinchi jahon urushi yillaridagi demografik o'zgarishlar muhojirlik jarayonining asosiy omillari sifatida ko'rib chiqiladi. Manbalarga tayangan holda xorijdagi o'zbek diaspora guruhlarining shakllanish bosqichlari yoritiladi. Tadqiqotda sovet mafkurasi ta'sirida amalga oshirilgan islohotlarning Turkiston jamiyati ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotiga ko'rsatgan salbiy oqibatlarini ko'rsatib, bu jarayonlarning muhojirlik harakati kuchayishiga ta'sirini asoslab beradi.

Kalit so'zlar: Turkiston, muhojirlik, sovet mustamlakachiligi, jamoalashtirish, quloqlashtirish, "Hujum" kompaniyasi, diniy siyosat, diaspora.

CAUSES OF THE EMERGENCE OF THE EMIGRATION MOVEMENT IN TURKESTAN (A CASE STUDY OF THE SOVIET COLONIAL PERIOD)

Annotation

This article analyzes the factors that led to the emergence of emigration from Turkestan during the period of Soviet colonial rule. It examines political repression, restrictions on national and religious values, the policy of the "Cultural Revolution", collectivization and dekulakization campaigns, the "Hujum" campaign, and the demographic changes that occurred during the Second World War as the principal factors contributing to the emigration process. Based on historical sources, the study highlights the stages in the formation of Uzbek diaspora communities abroad. It demonstrates the negative socio-economic and spiritual consequences of reforms implemented under the influence of Soviet ideology on the society of Turkestan and substantiates their role in intensifying the emigration movement.

Key words: Turkestan, emigration, Soviet colonialism, collectivization, dekulakization, the "Hujum" campaign, religious policy, Uzbek diaspora.

ПРИЧИНЫ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ЭМИГРАЦИОННОГО ДВИЖЕНИЯ В ТУРКЕСТАНЕ (НА ПРИМЕРЕ ПЕРИОДА СОВЕТСКОГО КОЛОНИАЛЬНОГО ГОСПОДСТВА)

Аннотация

В статье анализируются факторы, обусловившие возникновение эмиграции из Туркестана в период советского колониального господства. В качестве основных причин эмиграционных процессов рассматриваются политические репрессии, ограничение национальных и религиозных ценностей, политика «культурной революции», коллективизация и раскулачивание, кампания «Худжум», а также демографические изменения, произошедшие в годы Второй мировой войны. На основе исторических источников освещаются этапы формирования узбекской диаспоры за рубежом. В исследовании раскрываются негативные социально-экономические и духовные последствия реформ, осуществившихся под влиянием советской идеологии, а также обосновывается их влияние на усиление эмиграционного движения.

Ключевые слова: Туркестан, эмиграция, советский колониализм, коллективизация, раскулачивание, кампания «Худжум», религиозная политика, узбекская диаспора.

Kirish. XX asrda sovet mustamlakachiligi natijasida Turkiston o'lkasida sodir bo'lgan siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy o'zgarishlar mahalliy aholi hayot tarzini tubdan o'zgartirdi. Markaz tomonidan olib borilgan keskin ijtimoiy-siyosiy islohotlar, milliy va diniy qadriyatlarining ta'qib qilinishi, ommaviy qatag'onlar, jamoalashtirish va quloqlashtirish siyosati natijasida yuzaga kelgan muhojirlik harakatlari bugungi kunda ham dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi – sovet mustamlakachiligi davrida Turkistonda muhojirlikning yuzaga kelishiga olib kelgan omillarni siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va mafkuraviy jihatlardan kompleks tahlil qilishdir.

Tadqiqot obyekti – XX asrning birinchi yarmi va o'rtalarida Turkiston o'lkasida vujudga kelgan muhojirlik jarayonlari.

Adabiyotlar sharhi va metodologiya. Sovet davrida Turkiston o'lkasida muhojirlik harakatining yuzaga kelish omillari, bosqichlari va ijtimoiy-siyosiy muhiti o'zbek va xorijiy tadqiqotlarda dolzarb masalalardan bo'lib, yurtimizda mustaqillik yillaridan boshlab sovet mustamlakachiligi, diniy va milliy qadriyatlarga qarshi siyosat hamda qatag'onlarning oqibatlari arxiv manbalari asosida xolis tadqiq etila boshlandi.

Mazkur maqolada sovet davrida Turkistonda yuzaga kelgan muhojirlikning sabablarini atroflicha yoritishda asosiy adabiyotlar sifatida quyidagi tadqiqotlardan foydalanildi: Sh.A. Hayitov, N.S. Sobirov, A.S. Legay hamda "O'zbekistonning yangi tarixi" turkumidagi tadqiqotlarda XX asr o'zbek

muhojirligi uch asosiy bosqichda tahlil qilinadi: Oktabr to'ntarishi va sovet hokimiyatining zo'rlik bilan o'rnatilishi; 1920–1930-yillardagi yer-suv islohoti va jamoalashtirish siyosati; Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi yillarda asirlik va mafkuraviy tazyiqlar tufayli xorijda qolgan vatandoshlar taqdiri. Ushbu ishlar xorijdagi o'zbek diasporasining shakllanish geografiyasi va demografik ko'lamini aniqlashda asosiy manba hisoblanadi.

Muhojirlikning mafkuraviy-madaniy omillari Rustambek Shamsutdinov va Shodi Karimov tadqiqotlarida yoritilib, “madaniy inqilob” siyosati mahalliy xalqlarni tarixiy xotira, til va diniy qadriyatlardan ajratishga qaratilgan strategiya sifatida qilingan. Eski milliy maktablarning tugatilishi va yozuvning bir necha bor o'zgartirilishi turkiy xalqlar ma'naviy merosiga zarba sifatida baholanadi.

Diniy siyosat va ateistik targ'ibot N.Y. Ollomurodov va A. Salmonov ishlarida tadqiq qilinib, masjid va madrasalarning yopilishi, din arboblari iqtisodiy tazyiqlar, “Butunittifoq xudosislar uyushmasi” va uning nashrlari orqali olib borilgan keng ko'lamli targ'ibot ommaviy ongini sovet mafkurasiga bo'ysundirish vositasi sifatida ko'rsatiladi.

Tahlil va natijalar. Muxojirlik tarixiga oid ma'lumotlarga ko'ra, xorijdagi o'zbeklar asosan tariximizning uch muhim davrida xorijiy mamlakatlarga ketganlar: 1-davri Oktabr inqilobidan oldin va keyin boshlangan siyosiy ziddiyatlar sabab hamda sovet hokimiyati o'rnatilgandan keyin xorijga ketgan o'zbekistonliklar. O'zbeklarning xorijga ketishlarining ikkinchi davri O'rta Osiyo hududida o'tkazilgan 20-30-yillardagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi islohotlar bilan bog'liq. Turkiston avtonom muxtoriyati hamda Buxoro va Xorazm Xalq Respublikalarida o'tkazilgan yer-suv islohotining birinchi davri (1920–1922 yillar) va ikkinchi davri (1925–1927 yillar) hamda qishloq xo'jaligini yoppasiga jamoalashtirish davrida (30-yillar) ular asosan ketishga majbur bo'lganlar.

Xorijdagi o'zbek vatandoshlarimizning xorijga ketishlarining uchinchi davri ikkinchi jahon urushi yillariga (1941–1945 yillar) to'g'ri keladi. Ular asosan janglarda ishtirok etib asirga tushishi va boshqa sabablarga ko'ra chet ellarda qolib ketganlar. Ikkinchi jahon urushi yillaridan keyin xorijda qolib ketgan o'zbeklar unchalik ko'pchilikni tashkil qilmaydi. Ular bir necha ming kishi bo'lib, asosan, Yevropa, Kanada va Amerikada yashaydilar. Ularning ko'pchiligi fashist bosqinchilariga qarshi jang qilganlar. Taqdir taqozosi bilan asir tushgandan so'ng, o'z jonlarini saqlab qolish yo'lida barcha azoblarga bardosh berganlar. Ular urush tugagandan so'ng o'z vatanlariga qaytish orzusi bilan yashaganlar, lekin “xalqlar dohiysi” I.V. Stalin tomonidan chiqarilgan dushman qo'lida asir bo'lganlarni o'lim va surgun jazolariga hukm qilish haqidagi 270-buyrug'i ularni vatanga qaytish yo'llarini to'sgan [1].

Turkistonda muhojirlikning yuzaga kelishining asosiy sabablari turli omillar bilan bog'liq bo'lib, ular siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarida namoyon bo'ldi. Sovet hokimiyatining qattiq nazorati va repressiv siyosati, milliy ozodlik harakatlarining bostirilishi Turkiston aholisi orasida mazkur tuzumga nisbatan norozilik kayfiyati avj olishiga sabab bo'ldi va natijada imkon topa olgan ayrim Turkistonliklar muhojirlik qismatiga ko'nib, o'zga yurtlarga ketishga majbur bo'lganlar. Bundan tashqari ushbu davrda amalga oshirilgan jamoalashtirish va iqtisodiy sohada olib borilgan islohotlar dehqon va hunarmandlarning hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Yangi iqtisodiy tartib-qoidalar va resurslarning markazlashuvi natijasida ushbu soha vakillari orasidan hijrat qilish imkoniyatiga ega bo'lganlari iqtisodiy imkoniyatlarni izlab ham boshqa davlatlarga ketganlar.

Shuningdek, Sovet davrida amalga oshirilgan madaniy va ijtimoiy islohotlar, jumladan, diniy va milliy an'analarning cheklanishi, aksar Turkistonliklarning o'z madaniy va diniy erkinliklarini saqlab qolish maqsadida muhojirlikka yuz tutishlariga sabab bo'ldi. 1917–1934 yillarda O'rta Osiyodan 900 mingdan ortiq kishi xorijga chiqib ketgan. Ikkinchi Jahon urushi davrida ham bu jarayon davom etdi. XX asr oxirlarida xorijda xususan Amerika, Yevropa, Osiyo va hatto Afrika va Avstraliyada 3 millionga yaqin o'zbeklar yashagan, shundan 2 millioni O'zbekistonlik o'zbeklar edi [2. 347–355].

Sovet davri g'oyaviy mafkurasiga va shu davrda amalga oshirilgan islohotlarga doir tadqiqotlar Turkistonda muhojirlikning asosiy sababi sifatida mahalliy xalqlarning diniy va milliy qadriyatlarining cheklanishini ko'rsatadi. V.I. Lenin ilgari surgan “madaniy inqilob” siyosati “shaklan milliy, mazmunan sotsialistik” madaniyatni barpo etish shiori ostida olib borilgan bo'lsa-da, amalda O'rta Osiyoda mustamlakachilik siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, mahalliy xalqlarni o'z tarixidan, tilidan va qadriyatlaridan begonalashtirishga xizmat qildi.

Sovet hokimiyati Turkiston xalqlarining milliy istiqlol va ozodlik uchun kurashini bostirish maqsadida ularning milliy ongini o'zgartirishga intildi. Bu jarayonda maorif tizimi tubdan isloh qilindi: eski milliy ta'lim-tarbiya tizimi bosqichma-bosqich tugatilib, uning o'rniga sovet ta'lim tizimi joriy etildi.

Bolsheviklar hokimiyatining dastlabki yillarida eski usul maktablar faoliyati davom etgan: 1925-yilda O'zbekistonda 97 ta vaqf maktabi va 1,5 mingdan ortiq eski maktablar ishlagan, ularning 250 tasi yashirin tarzda faoliyat yuritgan. 1928-yilda esa eski milliy maktablar butunlay yopildi. Turkiy xalqlarning milliy ta'lim-tarbiya tizimiga ikki marta og'ir zarba berildi.

Birinchisi, O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasi qaroriga ko'ra, 1929-yil 1-dekabrda arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvi lotinlashtirilgan o'zbek alifbosiga almashtirildi.

Ikkinchisi, 1940-yil 8-mayda O'zbekiston SSR Oliy Sovetining III sessiyasida “o'zbek yozuvini lotinlashtirilgan alfavitdan rus grafikasi asosidagi yangi alfavitga ko'chirish to'g'risida”gi qonun qabul qilindi. Bu choralar orqali mahalliy xalqlarning milliy ongi o'zgartirilib, ularni Sovet mafkurasiga moslashtirish maqsad qilingan. Natijada xalqlar o'z tarixiy-madaniy merosidan mahrum bo'lib, sovetlar belgilagan yangi madaniy va ijtimoiy meyorlarga moslashishga majbur etildi [3].

Sovet hokimiyati dastlab inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan qarorlar qabul qilgan bo'lsa-da, amalda mahalliy aholining milliy va diniy qadriyatlarini poymol qildi. Turkistondagi ko'plab masjid va madrasalar vayron qilinib yoki boshqa maqsadlarda ishlatildi, yetakchi din ulamolari “sovet hokimiyatining dushmanlari” sifatida ta'qib qilindi. 1917–1920-yillarda hukumatning dinga munosabati keskin daxriylik bilan xarakterlandi, biroq o'lka vaziyatining og'irlashuvi uni ma'lum ehtiyotkorlikka majbur qildi: 1922–1923-yillarda ayrim vaqflar diniy muassasalarga qaytarildi. 1926–1927-yillardan esa sovetlarning diniy siyosatida keskin burilish yuz berib, “xudosislik uchun kurash” harakati boshlandi, islomga qarshi shafqatsiz tashviqot va targ'ibot olib borildi. O'zbekistonda masjid va madrasalar yopilib, aholining islom farzlarini erkin ado etish imkoniyati cheklab qo'yildi; natijada musulmonlar ibodatni yashirincha bajarishga majbur bo'ldi. 1927–1938-yillarda saqlanib qolgan oz sonli masjidlarda xizmat qilayotgan ulamolarga katta soliq solindi, soliqni to'lay olmagan mulla va eshonlar sud qilinib, jinoyatchi sifatida jazolandi. 1927–1941-yillar davomida musulmon diniy muassasalari tugatildi, ruhoniylar keng ko'lamda qatag'on qilindi, bu esa jamiyatning ma'naviy poydevoriga jiddiy zarba bo'ldi. 1941-yilda urush boshlanishi munosabati bilan sovet

hukumati diniy siyosati nisbatan “yumshash” bosqichiga o'tdi. Front ortini mustahkamlash zarurati dindorlar va ulamolarga qisman huquqiy erkinliklar berilishiga olib keldi, diniy tashkilot va muassasalar davlat nazorati ostida qayta faoliyat yuritish boshlandi. Xalqning og'ir moddiy ahvoli va ulamolarning jamiyatdagi nufuzi hisobga olinib, diniy qadriyatlar bilan ma'lum darajada hisoblashish aholining yagona maqsad yo'lida jipslashuviga xizmat qildi [4. 201].

Yuqoridagi ma'lumotlarga ko'ra, sovet hokimiyati siyosati natijasida boshqa soha vakillari qatori diniy ulamolalar ham og'ir tazyiqqa uchragan.

O'zbekiston SSRda yer-suv islohoti, “Hujum” kampaniyasi, qishloq xo'jaligini jamoalashtirish, quloqlashtirish va 1937–1938 yillardagi ommaviy qatag'onlar davrida ulamolalar keskin jazolangan. Sovet islohotlari asrlar davomida shakllangan islomiy ma'naviyat va his-tuyg'ularni mensimaslikka asoslandi. Mavjud tuzumga muxolif kuchlar hamda “aksilinqilobchilar” deb baholangan tashkilotlar bahonasida diniy ulamolalar bosim ostiga olindi. Ularga boshqalar yordam berish, ularni yashirish, sherikchilik va josuslik qilish, aksilinqilobiy tashkilotlarga a'zo bo'lish, terrorchilik va g'oyaviy yetakchilik kabi ayblar qo'yildi. Mulla, shayx, qozi, imom, alam va mutavallilarning boylar va yirik zamindorlarga yaqinligi ham qatag'on uchun sabab bo'ldi.

Tarixda vatanimiz bir necha bor mustamlakachilikni boshdan kechirgan bo'lsa-da, sovet davri o'zining keskin ateistik siyosati bilan ajralib turadi. Avvalgi bosqinchilar, jumladan mo'g'ullar ham to'liq e'tiqodsiz bo'lmagan, sovet hokimiyati esa ateistik g'oyalarni davlat siyosati darajasiga ko'tardi. Bu jarayonda uyushmalar va matbuot asosiy vosita bo'lib xizmat qildi. 1925–1947 yillarda faoliyat yuritgan Butunittifoq xudosislar uyushmasi sovet hokimiyatining asosiy targ'ibot-tashviqot organi va diniy tashkilotlarga qarshi dahriylik siyosatining bosh markazi bo'ldi. Uyushmaning 1929 yil Moskva syezida markaz va respublika bo'limlari “kurashchan xudosislar” deb atalishi belgilandi. XX asr 20-yillari oxiriga kelib uyushma 14 tilda 18 ta nashrga ega edi. Haftalik “Bezbojnik” gazetasi, “Antireligioznik”, “Bezbojnik”, “Derevenskiy bezbojnik”, “Yunyy bezbojnik”, “Kurashchan ateizm” kabi jurnallar diniy “fosh etish” va dindorlarni burjuaziya tarafdorlari sifatida ko'rsatishga xizmat qildi. Shuningdek, ukrain tilida “Bezvernik”, tatar tilida “Sgushchan allasizlar”, yahudiy tilida “Anikuyres”, arman tilida “Anastvast” singari gazeta va jurnallar ham oyda bir marotaba chop etilib turdi. Targ'ibot faqat matbuot bilan cheklanmay, sovet armiyasida ham keng yoyildi: 1929 yilda “Xudosislar samolyoti”, 1931 yildan “Kurashchan xudosis” tanki, Baltika flotida “Kurashchan xudosis” suv osti kemasi, shuningdek “Ukrainalik xudosis”, “Gruziyalik xudosis”, “Birobidjon xudosislari” nomli samolyotlar, “Urallik xudosis” tank kolonnasi shunday siyosat mahsulati edi. Natijada “Xudosislar uyushmasi” a'zolari, muxbir va faollar soni 1920 yildagi 100 mingdan 1929 yilda 700 mingga, 1932 yilga kelib esa 5,5 million kishiga yetgan [5. 92].

Sovetlar olib borgan islohotlar ayollar masalasini ham chetlab o'tmadi. Dinimiz va milliy madaniyatimizda ayol alohida o'rin tutadi: u nafaqat oila erkaklarining, balki butun millatning ori va g'ururi hisoblanadi. “Ayollar ozodligi” shiori aynan shu mavqega qarshi qo'yildi. O'sha davr ayollarining turmush tarzini asosan XX asr

adabiyotidagi asarlar orqali bilamiz, biroq sovet davridagi ijodkorlar mafkura ta'sirida yozishga majbur bo'lganliklari uchun bu asarlar tarixchilar tomonidan tanqidiy-tarixiy yondashuv asosida o'rganilishi zarur.

Qariyb 1300 yil davomida islom tamoyillari asosida tarbiyalangan Turkiston ayollari ming yillik qadriyatlaridan voz kechishga ehtiyoj sezmagani, butkul savodsiz ham bo'lmagan. Bunga 1931-yilda sovet tuzumining kommunistik siyosati bois vatanini tark etib, umrining oxirigacha muhojirlikda yashagan Azam Xoshimiyning onasi haqidagi xotiralari misol bo'la oladi. U onasining musulmonlikka sodiqligi, farzandini vatanida iymonsizlik ta'sirida qolib ketmasligi uchun hijratga ruhsat berishi, Qur'oni Karimni aziz tutishga undashi, va'daga vafo va sobitqadamlikni inson sharafiga belgisi sifatida ko'rsatishini zikr etadi [6]. Bu ma'lumotlar Turkiston ayollarining ilmiy-ma'rifatlilik ekanidan darak beradi; bunday onalar o'lkani katta qismini tashkil etgani shubhasiz va ular o'zlarini “ozod qilish”ga ehtiyoj sezmagani.

Shunga qaramay, bolsheviklar ayollarni ozod etish shiori ostida iqtisodiy va siyosiy sohalar uchun yangi ishchi kuchi yaratishga intildilar. Ular ayollarni bo'lajak kommunistik avlodlarning onalari sifatida ko'rib, kommunistik jamiyatning muhim ijtimoiy qatlami deb baholadilar. Sovet Ittifoqi ayollarining siyosiy va iqtisodiy hayotdagi ishtirokini rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratdi.

1919-yil 12-noyabrda RKP(b)ning Turkiston o'lka qo'mitasida xotin-qizlar bo'limi tashkil etildi. Ushbu bo'lim keyinchalik Turkiston KP Markaziy Qo'mitasi xotin-qizlar bo'limiga aylantirildi. Sovet rahbarlari ayollarni erkaklar bilan tenglashtirish maqsadida ma'naviy va moddiy yordam ko'rsatdilar. Biroq, bu maqsadlar turli mintaqalarda turli sharoit va usullar bilan amalga oshirildi. 1919-yil noyabrda Toshkentda, 1919-yil dekabrda Samarqandda, 1919-yil fevralda Farg'onada va boshqa hududlarda xotin-qizlar bo'limlari ochildi. 1920-yil oxiriga kelib respublikada 40 ga yaqin xotin-qizlar bo'limlari faoliyat yuritdi. 1920-yillarning ikkinchi yarmida Sovet hukumatining “Hujum” kompaniyasi Islomga qarshi kurashda asosiy rol o'ynadi. Bu jarayon ayollarni an'anaviy kiyimlar, yani paranjidan ozod qilish va gender munosabatlarini o'zgartirishga qaratilgan edi.

Xulosa. Yuqoridagi ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sovet mustamlakachiligi davrida Turkistonda muhojirlik siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va mafkuraviy omillar kesishgan murakkab jarayonlar natijasida vujudga kelgan. Dastlab siyosiy ta'qiblar, milliy qadriyatlarining cheklanishi hamda diniy erkinlikning bekor qilinishi muhojirlik harakatining shakllanishiga olib keldi. Keyingi bosqichlarda jamoalashtirish, quloqlashtirish, madaniy inqilob va ayollar “ozodligi” siyosati tufayli yuzaga kelgan keskin ijtimoiy o'zgarishlar ko'plab odamlarni vatanni tark etishga majbur qildi. Bu jarayonlar nafaqat iqtisodiy va siyosiy inqirozlarni chuqurlashtirdi, balki Turkiston xalqlarining ma'naviy hayotiga ham og'ir zarba berdi. Natijada milliy, diniy va madaniy qadriyatlarini asrashga intilgan ziyolilar, dehqonlar, hunarmandlar va ulamolalar chet ellarga hijrat qildilar. Shu tariqa mazkur davrda yuzaga kelgan muhojirlik Turkiston muhojirlik harakatining asosiy shakllanish bosqichini belgilab, muhojirlarning keyingi siyosiy va ilmiy faoliyatini rivojlantirish uchun muhim tarixiy zamin yaratdi.

ADABIYOTLAR

1. Sh.A. Hayitov, N.S. Sobirov, AS. Legay xorijdagi o'zbeklar Toshkent “fan” nashriyoti. 1992.
2. Mualliflar jamoasi. “O'zbekistonning yangi tarixi”. Ikkinchi kitob. “O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida”. “Sharq” nashriyot - matbaa kontserni bosh tahririyati. Toshkent – 2000.
3. Rustambek Shamsutdinov, Shodi Karimov. “Vatan tarixi (o'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida) uchinchii kitob to'ldirilgan, qayta ishlangan ikkinchi nashri”. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati. Toshkent – 2010.
4. Ollomurodov Nurali Yoqub o'g'li, Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi. “Sovet hukumatining dinga nisbatan munosabati va uning ijtimoiy oqibatlari”. oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences, (e)issn: 2181-1784, www.oriens.uz sjif 2023 = 6.131 / asi factor = 1.7, 3(4/2), april 2023.
5. Ahmadjon Salmonov. “O'zbekistonda sovet hokimiyatining diniy siyosati: uydirma va tarix haqiqati (1917–1960 yillar)”. “Tafakkur” nashriyoti toshkent - 2015
6. A'zam Xoshimiy. “Samarqand Buxoroning qonli kechmishlari tarjimon: abu hafs turkistoniy”.
7. “O'zbek xotin-qizlari: ijtimoiy o'zgarishlar sovet hukumronligi davrida – tema nauchnoy stat'yi po naucham ob obrazovanii chitaytte besplatno tekst nauchno-issledovatel'skoy raboty v elektronnoy biblioteka kibberleninka.ru/article/n/o-zbek-xotin-qizlari-ijtimoiy-o-zgarishlar-sovet-hukumronligi-davrid